

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAMANIYOZOV XUSNIDDIN TOSHMURODOVICH

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA “OLTIN” KONSEPTINING KOGNITIV
VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Mamaniyozov Xusniddin Toshmurodovich

Nemis va o‘zbek tillarida “oltin” konseptining kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari..... 3

Маманиязов Хусниддин Тошмуродович

Когнитивные и лингвокультурологические особенности концепта “золото” в немецком и узбекском языках..... 29

Mamaniyozov Khusniddin Toshmurodovich

Cognitive and linguocultural features of the concept of “gold” in German and Uzbek languages..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAMANIYOZOV XUSNIDDIN TOSHMURODOVICH

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA “OLTIN” KONSEPTINING KOGNITIV
VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2572 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Ilxom Yuldoshevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Axmedov Anvar Botirovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyachi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "18" mart 2026-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62797-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil "16" fevral dagi № 10 raqamli reestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi lingvistik tadqiqotlarda konseptual tushunchalarning mazmun-mohiyati, grammatik va semantik ma'nolarining matn doirasida ifodalanishi va ularning strukturalarini aniqlash masalalari ko'plab tadqiqot ishlarining obyekti bo'lib kelmoqda. Zamonaviy tilshunoslikning kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya sohalarida alohida konseptlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, ammo turli tillar materialida "oltin" konseptini qiyosiy tadqiq qilish masalalariga bag'ishlangan tizimli ishlar juda kam, shuningdek, ulardagi til materialining tahlili asosan sinxroniya, ya'ni tilning so'z boyligi, grammatikasi va fonetik xususiyatlarini o'rganish doirasidan chiqmaydi. Dunyoni bilish jarayoni, madaniyat va turli jamiyatlarning kundalik hayotida ko'rib chiqilayotgan konseptlarning o'xshashliklari, farqlari va rolini tasvirlash, ushbu jamiyatlar bilan bog'liq mentalitet xususiyatlarini tahlil qilish va tipik milliy tasavvurlarning paydo bo'lish sabablarini aniqlash zaruratining yuzaga kelishi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligidan dalolat beradi.

Dunyo tilshunosligida "oltin" konseptini o'rganish, uni tahlil qilishga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari muntazam ravishda olib borilayotganligiga qaramasdan, "oltin" konseptining kognitiv, lingvokulturologik, mental va boshqa mantiqiy ma'nolarining badiiy matnda yoyilish darajasi va ifodalanish usullari bilan bog'liq muammolar ko'pgina tillar materiallari asosida to'liq va chuqur o'rganilmagan. Yuqoridagi holatni e'tiborga oladigan bo'lsak, turli manbalardan olingan matnlarda "oltin" konsepti kognitiv va lingvokulturologik ma'nosining ifodalanishi tadqiqiga zarurat tug'iladi. Shu jihatdan olib qaralganda mazkur muammolarni hal qilish uchun tilshunoslikda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik milliy tilshunoslikni jahondagi ilg'or mezonlar asosida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratishi bilan birga, ushbu mezonlarga ko'p asrlik milliy dunyoqarashimizdan kelib chiqib munosabat bildirish mas'uliyatini ham yuklaydi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayoni, xalq xo'jaligi turfa jabhalaridagi tashqi munosabatlarning tezkor rivoji mamlakatda kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog'liq fan va ta'lim tizimi taraqqiyotiga yo'l ochish bilan bir paytda, uning zimmasiga muhim vazifalarni yuklaydi. Bugungi kunda yurtimizda asosiy e'tibor "ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish, fan hamda innovatsiya yutuqlarini amalga tatbiq etish"ga qaratilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish yo'liga o'tdi. Zotan, hozirgi zamon shiddati fan sohalarini muttasil yangicha tafakkur, g'oya va tahlil tamoyillari bilan boyitish zaruratini yuzaga keltirdi va bu turli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar va izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, badiiy matnda "oltin" konseptining kognitiv va lingvokulturologik ma'nosining namoyon

bo'lishini tadqiq qilish hamda ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish zarurati alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, "mening farzandim chet tillarini biladi-yu, ona tilini bilmaydi, degan gap Yangi O'zbekistonga ma'qul emas. Chet tilini bilishi kerak, lekin ona tilini bilishga majbur"¹. Darhaqiqat, chet tilini o'rganishimiz uchun, albatta, birinchi navbatda ona tilimizni bilishimiz shart. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish sifatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar sistemasini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslik fanida "oltin" konsepti bilan bog'liq muammolar uzoq vaqt davomida butun dunyo tilshunoslari e'tiborini tortib kelgan. Xususan, nemis tilshunoslari Heinrich Zimmer² o'zining madaniyatshunoslik va simvolizm bo'yicha ishlarida "oltin" konseptini tahlil qilgan, Gottfried Wilhelm Leibnitz³ va Ruth Wodak⁴ kabi nemis filologlari "oltin" konsepti bilan o'xshash ravishda, umumiy, tartiblangan va tizimli tushunchalarning inson

¹ 2022-yil 20-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. Prezident.uz/zu/lists/view/5774

² Zimmer H. Myths and Symbols in Indian Art and Civilization. Princeton University Press; F Second Printing Used edition, 1972. – 282 p.

³ Leibniz, Gottfried Wilhelm. Discourse on Metaphysics and the Monadology. Hackett Publishing Company, Inc. 2005. – 96 p.

⁴ Weiss G., Wodak R. Critical Discourse Analysis: Theory and Interdisciplinarity. Palgrave Macmillan, 2002. – 332 p.

tafakkurida qanday o‘rin tutishi haqida fikr yuritadi. Bu “oltin” konsepti, o‘zining ilmiy yondashuvlarida til va tafakkurning ajralmas bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Ularning diskurs tahlili tilning ijtimoiy va psixologik aspektlarini o‘rganish orqali “oltin” konsepti bilan bog‘liq yondashuvlarni rivojlantirgan. Bundan tashqari E.B.Taylor, Karl Yung, Marsel Maus, Viktor Turnerlar “oltin” konsepti va uning turli sohalaridagi ahamiyatini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan⁵. Ular “oltin” konseptining an‘analar, simvollar, va ijtimoiy tuzilmalar orqali turli sohalaridagi kognitiv, madaniy, va psixologik tahlillarini amalga oshirishgan. Bu orqali ular “oltin” konsepti nafaqat kognitiv yoki semantik jihatdan, balki madaniy va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham muhimligini tushuntiradi.

“Oltin” konseptini o‘rganish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar MDH mamlakatlari, ayniqsa rus tilshunoslari asarlarida mazkur muammoni o‘rganishning turli yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilgan. Jumladan, S.Averinsev, D.Lixachev, L.Mixaylova, V.Propp, A.Robinson, I.Chernousova⁶ va boshqalar “oltin” konseptining matndagi o‘ziga xosligi uzoq vaqtdan beri rus tadqiqotchilari tomonidan ta’kidlab kelinadi, uning qo‘llanilishining o‘ziga xosligi haqida qiziqarli mulohazalar mavjud. Ular asosan madaniyatshunoslik, lingvistika, folkloristika, mifologiya, antropologiya va psixologiya sohalarida “oltin” konseptining turli jihatlarini o‘rganishgan. Shuningdek, rus olimlaridan Y. Apresyan tilning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi rolini o‘rganish bilan birga, semantik tahlil orqali “oltin” kabi qiymatli tushunchalarning til va tafakkurda qanday shakllanishini o‘rgangan. U “oltin” tushunchasining madaniy va psixologik ahamiyatini, shuningdek, uning jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan⁷, A. Dubyanskiy esa “oltin” kabi qadriyatli va ramziy tushunchalarning til va madaniy kontekstlarda qanday shakllanishi haqida ish olib borgan. U o‘z tadqiqotlarida “oltin” konseptini jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar va transformatsiyalar kontekstida o‘rganishga intilgan⁸. L. Vigotski, “oltin” kabi ramziy tushunchalarni psixologik va kognitiv yondashuvda qanday shakllanishini o‘rgangan. “Oltin” tushunchasi, uning uchun, faqat tilni emas, balki jamiyatdagi madaniy qadriyatlarni va insonning ma’naviy rivojlanishini tasvirlashda muhim o‘rin tutgan⁹. Yana bir rus olimi M. Baxtinning fikriga ko‘ra, “til – jamiyatning ijtimoiy va madaniy strukturalari orqali shakllanadi

⁵ Tylor E.B. Primitive Culture. – London 1871. – 465 p.; Jung C. Psychology and Alchemy. Princeton University Press, 1944. – 467 p.; Mauss M. Sociologie et Anthropologie. – Paris: Presses universitaires de France, 1973. – 483 p.; Turner V. Dramas, Fields, and Metaphors: Symbolic Action in Human Society. Cornell University Press, 1975. – 309 p.

⁶ Аверинцев С.С. Золото в системе символов ранневизантийской культуры // Византия. Южные славяне и Древняя Русь. Западная Европа: Искусство и культура. – М., 1973. – С. 43-52.; Лихачев Д.С. Устные истоки художественной системы «Слова о полку Игореве» // Слово о полку Игореве: сб. исслед. и ст. / под ред. В.П. Адриановой-Перетц. – М.; – Л., 1950. – С. 53-92; Михайлова Л.В. Золото памятника древнерусской культуры. Реалия – лейтмотив: золото, золотой // Рус. яз. и лит. в киргиз. шк. 1986. № 1. – С. 57-59; Пропп В.Я. Русская сказка (Собрание трудов В.Я. Проппа). – М.: Лабиринт, 2000. – 333 с. Робинсон А. Н. Литература Киевской Руси в мировом контексте // Слав. лит. IX Междунар. съезд славистов: доклады сов. делегации. – М., 1983. – С. 3—25; Черноусова И.П. Взаимоотношение русского языка и культуры как сферы духовной жизни людей // Современный русский язык в лингвокультурологическом пространстве: сб. науч. тр. – Липецк, 2007. – С. 65.

⁷ Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Вопросы языкознания, 1995, № 1. – С. 37-68.

⁸ Dubianskiy A.M. Ritual and Mythological Sources of the Early Tamil Poetry. – Groningen: Egbert Forsten, 2000. – 224 p.

⁹ Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.; -Л.: Соцэкгиз, 1934. – 326 с.

va “oltin” kabi qiymatli tushunchalar, til orqali ijtimoiy aloqalarni tashkil etadi”¹⁰. Baxtin “oltin” tushunchasini o‘zgaruvchan ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda qanday aks ettirishni o‘rgangan¹¹. MDH mamlakatlaridagi olimlar, asosan, til, madaniyat, antropologiya, va psixologiya sohalarida “oltin” konsepti va uning ahamiyatini turli jihatlardan o‘rganishgan. Ular “oltin”ni nafaqat material qiymat sifatida, balki ijtimoiy, madaniy, va psixologik nuqtayi nazardan ham o‘rgangan. Ularning ishlari, bu konseptning jamiyat va madaniyatdagi o‘rni, uning til orqali qanday ifodalanishi va transformatsiyalanishi haqida qimmatli bilimlarni taqdim etadi.

O‘zbek tilshunos olimlaridan Muhammadjon Xudoyberdiyev, Dilfuza Iskandarova, Shodmonbek Tashkentovlar “oltin” konseptining til va madaniyatdagi o‘rni, uning o‘zbek tilidagi ko‘rinishi hamda o‘zbek adabiyotidagi ifodalari haqida tadqiqotlar olib borgan.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, tilshunosligida konseptual tahlilda “oltin” konsepti ham juda katta ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Ayrim holatlarda “oltin” konsepti ko‘pincha “boylik” konsepti misolida tadqiq etilgan. Lekin “oltin” tushunchasining asosiy moddiy-tabiiy xususiyati esa “boylik” konseptidan farq qiladigan fenomen sifatida qaralishi ham tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Bu kabi tadqiqotlar nemis va o‘zbek tillari bo‘yicha hajm jihatdan kam miqdorni tashkil etadi. Shunga qaramasdan qiyosiy-tipologik va komparativistik qarashlar mazkur sohadagi ayrim tadqiqotlarda mavzu va mazmun mohiyatini keng qamrab olgan ishlar sirasiga kiritiladi. Lekin bu tadqiqotlarning ilmiy-didaktik manbasida esa kognitiv, lingvokulturologik, mental va boshqa mantiqiy hamda nazariy lingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan kam yoritilganligini guvohi bo‘lamiz. Tilshunoslikda mazkur sohada olib borilgan yuqorida tilga olingan tadqiqotlar so‘zsiz “oltin” konsepti muammolarini yechishga ma’lum darajada hissa qo‘shgan. Ushbu mulohazalar bizga “oltin” konsepti kognitiv va lingvokulturologik ma’nosining matnda ifodalanishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi nemis va o‘zbek tillarida “oltin” konseptining konseptual, kategorial, kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

“oltin” konseptining lingvomadaniy, kognitiv va semantik qatlamlarini aniqlash maqsadida uning tarixiy-madaniy shakllanishi, ramziy va majoziy ma’nolari, konseptual maydondagi funksional xususiyatlari hamda til birliklarida aks etish mexanizmlarini tizimli ravishda tavsiflash;

nemis va o‘zbek tillarida “oltin” va “boylik” konseptlari o‘rtasidagi semantik-kognitiv bog‘liqlikni aniqlash uchun ularning lisoniy ifoda vositalarini, assotsiativ maydonlarini, ma’no kengayish tamoyillarini va mental tasavvurdagi o‘xshash

¹⁰ Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества / Походаев В. С. – Москва: Искусство, 1986. – С. 445.

¹¹ O‘sha asar.

hamda farqli jihatlarini konseptuallashtirish va kategoriyalash metodlari asosida tahlil qilish;

“oltin” konseptining vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda kategoriyalashish jarayonlarini o‘rganish, shuningdek, nemis va o‘zbek tillaridagi universal va differensial munosabatlarning reflektiv, simmetrik va ierarxik xususiyatlarini lingvokognitiv yondashuv asosida asoslash;

“oltin” konseptining “qimmatbaho metallar” va “kiyim-boshlar” konseptlari bilan o‘zaro aloqalarini aniqlash maqsadida ularning semantik yaqinlik darajasi, madaniy mazmuni, konseptual maydondagi o‘rni va kognitiv asoslarini qiyosiy-komparativistik tahlil asosida yoritish.

Tadqiqot obyekti “Oltin” konsepti va u bilan bog‘liq tushunchalarning tildagi ifodasi va ularning turli madaniyatlardagi roolidan iborat.

Tadqiqotning predmetini “Oltin” konsepti va u bilan bog‘liq tushunchalarning leksik-semantik xususiyatlari shakllanishidagi lingvistik va nolingvistik omillar, ijtimoiy va konseptual, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari sifatida ishda lingvistik tavsiflash, nominatsion-motivatsion, semantik, lug‘aviy-ma‘noviy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etimologik, modellashtirish hamda tarjima nazariyasi, lingvistik, kognitiv hamda lingvomadaniy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“oltin” konseptining tildagi lingvomadaniy, kognitiv va semantik jihatdan o‘zaro bog‘langan ko‘p qatlamli xususiyatlari tizimli ravishda ilmiy-nazariy asosda tasniflanib, uning milliy-madaniy mazmuni, ramziy-majoziy talqinlari hamda konseptual maydondagi funksional roli keng qamrovda tavsiflangan va ilmiy jihatdan asoslangan;

qiyoslanayotgan tillardagi “oltin” konseptining “boylik” konsepti bilan o‘zaro semantik va kognitiv bog‘liqligi konseptuallashtirish va kategoriyalash metodlari orqali chuqur o‘rganilib, ularning lisoniy tuzilishi, denotativ va konnotativ ma‘no kengayish mexanizmlari, assotsiativ aloqalari bo‘yicha o‘xshash va mental tasavvurdagi farqli jihatlari isbotlangan;

nemis va o‘zbek tillarida “oltin” konseptining vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda kategoriyalashish jarayonlari tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi universal va differensial munosabatlarning reflektiv, simmetrik va ierarxik xususiyatlari lingvokognitiv talqinlar asosida dalillangan;

“oltin” konseptining “qimmatbaho metallar” hamda “kiyim-boshlar” konseptlari bilan o‘zaro semantik va madaniy aloqalari qiyosiy-komparativistik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning konseptual maydondagi o‘rni, mazmuniy uyg‘unlik darajalari va kognitiv asoslari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“oltin” konseptining tahlili asosida “oltin” konseptining kognitiv va lingvokulturologik jihatdan turlari va xususiyatlari aniqlangan, tahlilga tortilgan lisoniy birliklar lingvokulturologik ma‘nosining badiiy asarlar matnlarida qo‘llanish darajasi ko‘rsatib berilgan.

Kognitiv tilshunoslikdagi “oltin” konsepti va u bilan bog‘liq tushunchalarning leksik tarkibiga xos bo‘lgan xususiyatlari aniqlanganligi va ularning kognitiv-lingvokulturologik vazifalarining tavsifiy belgilari, “oltin” konseptining kognitiv-lingvokulturologik ma’nolari bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning matn doirasida bajarib keladigan vazifalari tilshunoslikning nazariy va amaliy grammatika, leksikologiya, matn lingvistikasi, qiyosiy tipologiya, kognitologiya, lingvokulturologiya kabi sohalari bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining takomillashuviga yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ilmiy qarashlar, tahlil usullari, mavjud nazariyalar va lingvistik yondashuvlarning qo‘llanganligi, tahlil qilingan keng ko‘lamdagi faktik material va olib borilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishidagi nazariy holatlarga mosligi, tahlil va tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslanganligi, tadqiqot xulosalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nemis va o‘zbek tillarini mikro- va makrosemantik maydon haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitadi, ijtimoiy-lingvistik o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Amalga oshirilgan tahlillar asosida olingan ilmiy natijalardan “oltin” konseptini kognitiv-lingvokulturologik tadqiq qilishning keyingi taraqqiyotida hamda ushbu sohada olib boriladigan boshqa ilmiy izlanishlarda qo‘llash hamda dissertatsiyaning tadqiq usullaridan boshqa konseptual sohani tadqiq qilishda va ilmiy jihatdan o‘rganishda foydalanilish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalardan umumiy tilshunoslik, nemis tilining leksikologiyasi va stilistikasi bo‘yicha ma’ruza kurslarida, mintaqashunoslik, til tarixi, tarjima nazariyasi va amaliyoti va boshqa kurslarda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Ular kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va boshqalar bo‘yicha maxsus kurslarning mazmunini shakllantirishi va nemis tilini chet tili sifatida o‘qitiladigan amaliy mashg‘ulotlarda material sifatida ishlatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar, ishlanma hamda takliflar asosida:

“oltin” va “boylik” konseptlari bilan bog‘liq kognitiv va lingvomadaniy jihatdan bog‘langan xususiyatlarining ilmiy-nazariy jihatlari tasniflanishi va tavsiflanishi imkoniyatlari ochib berishga doir mulohazalardan Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 23-fevraldagi 386/30.02.01-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada erishilgan natijalar hamda nemis va o‘zbek tillari mikro va makro-semantik maydoni haqidagi ilmiy qarashlarga oid materiallardan tilshunoslikda o‘ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqishda, konsept tushunchasining kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarining ilmiy-nazariy jihatlari tasniflashda, shuningdek, konseptning kategoriyallashuv jarayonlarini izohlashda erishilgan ilmiy natijalar loyiha modullaridagi tilshunoslikka oid ma’lumotlarning elektron bazasini ishlab chiqilishiga asos bo‘lgan;

“oltin” va “boylik” konseptlarining konseptualizatsiyalashish xususiyatlari jahon nazariy kognitiv fanining barcha ilmiy parametrlari bo‘yicha aniqlanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutining 1-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 18-fevraldagi 326/30.02.01-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida mutaxassislik fanlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida virtual resurslar yaratish, talabalarning nemis va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortishini ta’minlash, innovatsiya va integratsiyalashgan ta’lim borasidagi bilimlarini oshirish hamda ta’lim tizimi jarayonini mustahkamlashga doir uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqishda yangi yondashuvlar sifatida mazkur tadqiqot ishidagi tahlil natijalari ma’lum darajada xizmat qilgan;

“oltin” va “boylik” konseptlarining kategorizatsiyalashish jarayonlari vertikal va gorizontal yo‘nalish bo‘yicha o‘xshashlik munosabatlarining reflektiv va simmetrik xususiyatlariga ega bo‘lishi haqidagi xulosa va yechimlardan Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 13-avgustdagi 1548/02-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalari “oltin” konseptini mikro- va makro-semantik maydon haqidagi qarashlar bilan boyish va ijtimoiy-lingvistik sohadagi o‘zgarishlarni tahlil qilish imkonini bergan;

“oltin” va “qimmatbaho madaniyatlar” hamda kiyim-boshlar konseptlari bilan bog‘liq kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarining to‘liq qiyosiy-komparativistik va ilmiy-nazariy asoslari amalga oshirilganligi xususidagi xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokanalida 2023-yil 8-noyabr kuni efirga uzatilgan “Kun mavzusi” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokopaniysining 2023-yil 8-noyabrdagi 01-07/349-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshshitirishlarning ilmiy ommabopligi ta’minlangan va yangi manbalar bilan boyigan hamda ilmiy natijalardan keyingi ko‘rsatuvlarda ham foydalanishi ko‘zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy ma’ruzalar ko‘rinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 3 ta xorijiy, respublika jurnallarida 3 ta ilmiy ish e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, o‘n ikki paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy jami 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Kognitiv tilshunoslikda konseptlarni tadqiq qilishning nazariy asoslari va “oltin” konseptining millat va madaniyatga aloqasi**” deb nomlangan birinchi bobida Konseptlarni o‘rganishda ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, konsept lingvokulturologiyaning kategoriyasi sifatida, shuningdek, milliy mentalitetning asosi sifatida ko‘rib chiqiladi. “Oltin” konsepti tahlilida konseptual va kategorial yondashuvlar asosida logik hamda falsafiy-mental konsepsiyalarning uyg‘unlashuvi amalga oshiriladi.

Til, tafakkur, ong, g‘oya, e‘tiqod taraqqiyotlari hamda mantiqiy-mental jarayonlar insonlarni bir-birini tushunish, tashqi real voqelikni, moddiy dunyoni idrok qilib tushuntirishi, ular haqidagi in‘ikos jarayonlarini o‘zlashtirish, o‘zaro fikrlashish qobiliyatiga ega bo‘lmas edi. Jumladan, til va tafakkur, g‘oya va fikr jarayonlari kishilar faoliyatida mavjud bo‘lmaganida ular munosabatlaridagi axborot oqimi qanday jamlanar, qay yo‘sinda bir kishidan boshqasiga uzatilar va bir avloddan ikkinchisiga yetib kelardi, degan masala hozirgacha konseptual va kognitiv fanlar sohasida munozarali bo‘lib qolmoqda¹².

Hozirgi kunda boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan lingvistik ta‘limotlar faol rivojlanayotganligini ko‘ramiz: psixolingvistika¹³, sotsiolingvistika¹⁴, lingvokulturologiya¹⁵, kognitiv tilshunoslik¹⁶, etnolingvistika va

¹² Попова З. Д., Стернин И. А. Очерки по когнитивной лингвистике. Изд.3. – Воронеж, 2003. – С.31; Попова З. Д., Стернин И. А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – 30 с.; Попова З. Д., Стернин И. А., Карасик В. И., Кретов А. А., Борискина О. О., Пименов Е. А., Пименова М. В. Введение в когнитивную лингвистику / Под ред. М. В. Пименовой. – Кемерово, 2004. – 209 с.

¹³ Ахманова О. С. О психолингвистике. – М., изд-во Моск. Ун-та, 1957. – 64 с.; Борисова И.Н. Семантическая организация высказываний, описывающих ситуацию познания: (На материале русского языка): Дис...канд. филол. наук. – СПб., 1991. – 380 с.; Волков В.В. Введение в психолингвистику: Пособие по спецкурсу. – Ужгород: Ужгородский гос. ун-т, 1994. – 202 с.; Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1960. – С. 281-310; Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1960. – С. 52-93.

¹⁴ Ерофеева Т.И. Социолект: стратификационное исследование / Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2009. – 240 с.; Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М.: Наука, 1989. – 188 с.; Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка. –Ташкент, 1926. – 123 с.; Тишин А. И. Целесообразность и рациональность в развитии ситуации общения // Когнитивные аспекты научной рациональности. – Фрунзе: КГУ, 1989. – С. 86-95.

¹⁵ Арутюнова Н.Д. Введение. Наивные размышления о наивной картине мира // Язык о языке. М., 2000. С. 7-19; Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 290 с.; Корнилов О. А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов / О. А. Корнилов. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 349 с.; Лотман Ю. М. Структура художественного текста // Об искусстве. – СПб., 1998. – С. 14–288; Никитина С. Е. О концептуальном анализе в народной культуре // Логический анализ языка. Культурные концепты. М., 1991. С.117-123; Шмелев, Дмитрий Николаевич. Избранные труды по русскому языку. – Москва: Яз. славян. культуры, 2002. – 887 с.

¹⁶ Кубрякова Е. С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики. / Вопросы когнитивной лингвистики. - 1994, № 4. - 100 с.; Лакофф Вж. Мышление в зеркале классиков / Пер.с англ. Р.И.Розиной // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII/ Когнитивные аспекты языка. - М.,

antropotsentrik lingvistika yo‘nalishidagi boshqa disiplinaryalar. Insonning mavqei hamma narsaning o‘lchovi sifatida antropotsentrik tushunish¹⁷ ham lingvistik tadqiqotlar nuqtayi nazarini o‘zgartirdi.

Quyidagi jadvalda bu yondashuvlarning asosiy farqlari, o‘xshash jihatlari va tadqiqotdagi ahamiyati tahlil qilinib, konseptual tahlilga kengroq va asosli yondashuvlar bilan yondashish imkoniyati berildi.

1-jadval

Konseptlarni tadqiq etishdagi asosiy ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Mezonlar	Kognitiv yondashuv	Lingvo-kulturologik yondashuv	Psixo-lingvistik yondashuv	Antropotsentrik yondashuv
Asosiy obyekt	Konseptlar, tafakkur va til o‘zaro bog‘liqligi	Til va madaniyat o‘zaro aloqasi	Til va psixik jarayonlar, nutq hosil bo‘lishi	Inson va uning tilga munosabati
Asosiy tamoyil	Til – tafakkurning in’ikosidir	Til – milliy madaniyatning aksidir	Til – psixik faoliyatning tashqi ifodasi	Inson – barcha til hodisalari markazida
Tadqiqot maqsadi	Inson tafakkuridagi konseptual strukturalarni o‘rganish	Madaniyatlararo tafovutlar orqali tilni tahlil qilish	Nutq ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlarini o‘rganish	Tilning insoniy xatti-harakatga ta’sirini aniqlash
Asosiy olimlar	G. Lakof, M. Jonson, E. Kubryakova	V.V. Vorobjyov, Yu.S. Stepanov	L. Vigotski, A.R. Luriya, T. Givon	G.G. Gachev, T.A. van Deyk
Metodologik asoslar	Konseptual metafora, ramziy tafakkur, freymmlar	Madaniyatlararo qiyosiy tahlil, lingvokulturologik markazlar	Eksperiment, testlar, nutq akti tahlili	Antropotsentrizm, subyektiv til modeli
Tilga qarash	Bilish vositasi, tafakkur mahsuli	Madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi	Psixik jarayonlarni tashqi ifodasi	Inson tajribasining lingvistik modeli
Konseptga yondashuv	Aqliy konstruktsiya, tafakkur moduli	Madaniy belgilar tizimi	Psixik jarayonlarning verbal namoyon bo‘lishi	Shaxsiy tajriba va qadriyatlar asosida shakllanadi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, konseptual tahlil har bir yondashuvda o‘ziga xos metodologiyaga ega. Kognitiv yondashuv konseptni tafakkur bilan bog‘laydi, lingvokulturologik yondashuv uni milliy madaniyat doirasida talqin etadi, psixolingvistik yondashuvda esa u psixik faoliyat mahsuli sifatida qaraladi.

1988. - 191 s.; Чейф У. Л. Память и вербализация прошлого опыта // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XII. Прикладная лингвистика. – М.: Радуга, 1983. С. 35-73; Березович Е.Л. Русская топонимия в этнолингвистическом аспекте. – Екатеринбург, изд-во Уральского ун-та, 2000. – 530 с.; Березович Е.Л., Рут М.Э. Ономастологический портретреалии как жанр лингвокультурологического описания // Известия Уральского государственного университета, 2000. № 17: Гуманитарные науки, вып. 3: Филология. – С. 33-38; Толстая С.М. Семантические категории языка культуры: Очерки по славянской этнолингвистике. – М.: Либроком, 2010. – 368 с.; Толстой Н.И. Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. – М.: Индрик, 1995. – 509 с.

¹⁷ Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки 2001 -№ 1.-С. 64-72.

Антропосентрик yondashuv esa til orqali insonni aks ettirish modeliga asoslanadi. Shu bois konseptlarni o'rganishda har tomonlama yondashuv muhim bo'lib, ular konseptning lingvistik, madaniy va psixologik tomonlarini to'liq ochib beradi.

Когнитив lingvistikada konseptlarni o'rganish til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Konseptlar insonning idrok, xotira va ongida shakllanadi, va til orqali uning ma'no va tasavvurlari ifodalanadi. Lakoff va Jonsoning¹⁸ “konseptual metafora” nazariyasiga ko'ra, konseptlar ko'pincha metaforalar orqali ifodalanadi.

Konseptlarning kognitiv asoslari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan. Demyankov¹⁹ va Kubryakova²⁰ konseptlarni psixologik tushunchalar bilan bog'laydi. Ularning fikricha, til faqatgina tashqi haqiqatni aks ettirish vositasi emas, balki inson ongida ma'lum bir idrok va bilimlarni yaratadi. Ularning tadqiqotlari konseptlarning mental struktura bilan bog'liqligini, ya'ni inson tafakkurining tilga qanday aks etishini o'rganishga qaratilgan.

“Konseptlar – xalq ongida, uning ma'naviy madaniyatida, xalqning ma'naviy hayotida jamlangan jamoaviy merosdir. Aynan jamoaviy ong konseptlarning saqlovchisi hisoblanadi, ya'ni doimiy yoki juda uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan konseptlarning saqlovchisidir”²¹.

Lingvokulturologiya doirasida konsept semantik kategoriyalardan biri sifatida ko'rib chiqiladi, u “tabiiy tilning umumiy sohibining mentalitetini va o'ziga xosligini aks ettiradi”²². Lingvokulturolog olimlar uchun konseptning “lingvomadaniy belgilanganligi”²³, uning “milliy-madaniy belgilanishi”²⁴ va ma'lum bir etnomadaniy jamiyat a'zolari uchun yagona ekanligi muhim o'rin tutadi.

O'zbek madaniyatida “oltin” boylik, qudrat va ezgulikka aloqador bo'lib, yuqori qadriyat sifatida qaraladi, xalq og'zaki ijodi va maqollarida esa yaxshi, sadoqatli va qadrli xususiyatlarni ifodalashda ishlatiladi. Nemis madaniyatida “oltin” (Gold) konsepti boylik va muvaffaqiyatni anglatadi, ammo asosan iqtisodiy yoki moliyaviy boylikni tasvirlashda ishlatiladi. Oltin ko'pincha iqtisodiy mustahkamlik va mehnatning mevasini ifodalovchi metafora sifatida ham qo'llaniladi.

Nemis tilidagi “oltin” konsepti iqtisodiy va madaniy qadriyatlarni birlashtiruvchi ramz sifatida ishlatiladi. “Gold” so'zi, o'zining fiziologik mohiyatidan tashqari, yuqori qiymat, obro' va muvaffaqiyatni ramzlashtiradi. Nemis madaniyatida oltin an'anaviy ravishda boylik va qudrat bilan bog'lanib, yuqori status, ijtimoiy qadr va o'z-o'zini baholashni ifodalaydi.

¹⁸ Лакофф Дж. Мышление в зеркале классификаторов / Пер.с англ. Р.И.Розиной // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII/ Когнитивные аспекты языка. – М., 1988. – 191 с.

¹⁹ Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания, 1994, №4. – 160 с.

²⁰ Кубрякова Е. С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики. / Вопросы когнитивной лингвистики. – 1994, № 4. – 100 с.

²¹ Степанов А. М. Толковый словарь по эзотерике, оккультизму и парапсихологии. – М., 1997. – С. 76.

²² Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. № 1. – С. 64-72.

²³ Орешкина М. В. Лингвокультурологические аспекты языковых заимствований // RES LINGUISTICA: Сб. статей: К 60-летию профессора В. П. Нерознака. – М., 2000. – С. 123.

²⁴ Красных В. В. Русское культурное пространство: концепт «Я» // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы Междунар. симпозиума. – Волгоград, 2003. – С. 268.

Nemis tilida “Gold” konseptining olamning lisoniy qiyofasida quyidagi xususiyatlarga ega ekanligi tahlil jarayonida aniqlandi: “to‘g‘ri makon”, “mahalliyashtirish”, “konteyner”, “uzunlik”, “ikki”, “o‘lcham”, “partitivlik”, “davomiylilik”, “tarix”, “dunyo”, “hayot”. Bu xususiyatlar “Oltin” konseptining asosiy xususiyatlari va kategoriyalarining ta’rifi muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Quyida, “Gold” konseptining yuqorida keltirilgan xususiyatlari bo‘yicha nemis tilida misollar tahliliga o‘tamiz:

a) To‘g‘ri makon: *In Schweizer Gärten liegt viel Gold*²⁵.

Ushbu gapda “Gold” so‘zini “to‘g‘ri makon” xususiyatiga ega tushuncha sifatida ko‘rishimiz mumkin, chunki u aniq va doimiy joyda joylashgan.

b) Mahalliyashtirish: *Römisches Minischloss aus purem Gold gefunden*²⁶.

Bu yerda esa “Gold” konseptining muayyan, geografik joyda – ya’ni qal’ada joylashganligini ko‘rishimiz mumkin.

d) Konteyner: ... *stehen wir kurzerhand vor einer goldenen Truhe, die sehr verlockend aussieht*²⁷.

“Gold” konsepti konteyner sifatida ishlatilgan va bu yerda oltin predmetlar yoki materiallarni saqlash uchun konteynerni bildiradi.

e) Uzluksizlik: *Vergrabenes oder versenktes Gold glänzt noch nach Jahrtausenden wie neu*²⁸.

“Oltin” konseptining uzluksizligi va davomiyligi, ya’ni – uning vaqt o‘tgan sari ham o‘zining qiymatini va jozibasini saqlashi nazarda tutilmoqda.

f) Ikki: *Gold und Silber sind seit Jahrhunderten als wertvolle Metalle bekannt und begehrt*²⁹.

“Gold” va “Silber” (kumush) konseptlari o‘rtasida o‘zaro qarama-qarshilik, ularning ikkalasi qimmatbaho va bir-birini to‘ldiruvchi metallar sifatida talqin qilinadi.

g) O‘lcham: *Da Gold sehr schwer ist, wanderte es bei der Entstehung der Erde in den Erdkern*³⁰.

“Gold” konsepti o‘lcham, massaning fizik xususiyatlarini bildiradi. Bu yerda oltin mahsulotining og‘irligi orqali uning miqdoriy o‘lchami ko‘rsatilgan.

h) Partitivlik: *Ein Teil des Goldes und des Bargeldes wurde zunächst in der Landeszentralbank (LZB) in München gesammelt*³¹.

Oltinning bir qismi yoki parchasi (partitivlik) haqida gapiriladi, ya’ni barcha oltin emas, balki faqat uning bir qismi haqida so‘z boradi.

i) Tarix: *Gold hat eine lange Geschichte als Währung und Wertspeicher*³².

Oltinning tarixiy ahamiyati, uzoq vaqtdan buyon insoniyat tomonidan qadrlanishi va ishlatilishi haqida gapirilmoqda.

²⁵ <https://www.srf.ch/news/wirtschaft/preis-auf-rekordhoch-in-schweizer-gaerten-liegt-viel-gold>

²⁶ <https://www.tagesschau.de/multimedia/video/video-1427898.html>

²⁷ <https://www.gamepro.de/artikel/baldurs-gate-3-goldene-truhe-eulenbaer,3398670.html>

²⁸ <https://www.faz.net/aktuell/wissen/geist-soziales/gold-denn-aller-wert-will-ewigkeit-16936467.html>

²⁹ <https://www.kettner-edelmetalle.de/wissen/ratgeber-gold-silber>

³⁰ https://www.ophirum.de/gold-wissen/geschichte_von_gold

³¹ https://www.focus.de/wissen/mensch/geschichte/nationalsozialismus/verschwundene-millionen-von-holocaust-opfern-geraubt-liegt-das-nazi-gold-auf-den-deutschen-banken_id_12701369.html

³² <https://juwelier-am-hochrhein.de/artikel/goldgeschichte/>

j) Dunyo: *Diese zehn Länder haben das meiste Gold gekauft*³³.

“Gold” konsepti butun dunyoda qadrlanadigan va izlaniladigan bir boylik sifatida ifodalanmoqda.

k) Hayot: *Gold glänzt nicht nur in der Sonne, sondern auch in unseren Regalen!*³⁴

Bu yerda oltin hayot va tabiatning jozibasini aks ettiradi – tabiiy yorug‘likda oltin o‘zining haqiqiy go‘zalligini ko‘rsatadi.

Yuqorida “oltin” va “Gold” konseptlari tahlil qilinib, har ikkala konsept o‘rtasida bir-biriga o‘xshash, ammo madaniyat va tilga xos farqlarni ko‘rsatadigan xususiyatlar mavjudligi ta’kidlab o‘tildi. Bu xususiyatlar, oltinning qimmatli, doimiy va o‘ziga xos sifatlari bilan bog‘liq ravishda, uning tarixiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

“Gold” konseptining sinonimlaridan ajratilgan ta’rifiy va etimologik xususiyatlarning miqdoriy taqsimoti quyidagi jadvalda keltirib o‘tamiz:

2-jadval

“Gold” konseptining sinonimlaridan ajratilgan ta’rifiy va etimologik xususiyatlarning miqdoriy taqsimoti

Belgilar	Miqdori	Belgilar	Miqdori
Hayotiylik	21	Jahon	23
Harakat	33	Uy raqami	1
Zoomorfizm	12	Miqdoriy belgi (son, sanoqlilik) holatida	46
Antropomorfizm	38	Egalik	4
Aqliy mahsulot	3	Ekzistentsial (mavjudlik) belgi	3
Muvofiqlik	23	Arqon, ip	12
Maqsad	2	Velosiped haydash	4
Imkoniyat	1	Uzluksizlik / qat’iylik	2
To‘g‘ri joy	59	Rang berish, audio-vizual xususiyat	17
Mahalliyashtirish	66	Vegetativ xususiyat	12
Konteyner belgisi, tarkib	47	Modda, element	15
Hajmi (uzunlik, balandlik, o‘lcham)	31	Diniy va mistik belgilar	15
Yo‘l	20	Boylikning boshqa xususiyatlari	30
Cheklangan	2	O‘zgarish, o‘zgaruvchanlik	18

Bu jadvalda “Gold” konseptining turli xususiyatlari, shuningdek, har bir xususiyatning miqdori ko‘rsatilgan. Har bir belgining o‘ziga xos roli va tushunchasi “Gold” konseptining umumiy tasavvurida qanday o‘rin tutishini yoritib beradi.

Shu bilan birgalikda, “Gold” konseptining mohiyatini hayotiy belgilarga ega bo‘lgan metaforalar vositasida tasvirlash mumkinligi aniqlanmoqda. Bunday metaforik ifodalar konseptga faqatgina moddiy emas, balki dinamik, tiriklik bilan bog‘liq semantik qatlamlarni ham yuklaydi. Tadqiqot davomida ma’lum bo‘ldiki,


³³ <https://www.capital.de/geld-versicherungen/gold--diese-10-laender-haben-das-meiste-gold-gekauft-35498582.html>

³⁴ https://www.facebook.com/story.php?story_fbid=547835927997366&id=100083128910659&_rdr

“oltin” konsepti aynan tirik mavjudotlarning atributlari bilan ifodalanuvchi hayotiy belgilarning eng keng tarqalgan guruhini tashkil etadi.

Hayotiy belgilar deganda barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar – harakatlanish, o‘shish, o‘zgarish, his qilish, qarilik, o‘lim kabilar nazarda tutiladi. Bu kabi atributlar “oltin” konsepti orqali ko‘p hollarda obrazli ifodalanadi va bu esa oltinning abstrakt emas, balki antropomorf xususiyat kasb etishini ta’minlaydi. Ayniqsa, adabiy va paremiologik manbalarda oltinning “tirik” sifatlari bilan boyitilishi uning semantik faol konsept sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Shunday qilib, “oltin” konsepti nafaqat boylik va qadriyatlar bilan, balki inson hayotining bevosita atributlari bilan ham bog‘lanib, keng qamrovli semantik struktura shakllantiradi. Bu holat “oltin” konseptini tiriklik va faollik bilan bevosita bog‘laydigan universal semantik model sifatida talqin qilish imkonini beradi.



1-rasm. Barcha tirik mavjudotlar hayotiy belgilar uchun namunalar

Bu misollarda “Gold” konseptining turli hayotiy belgilar yordamida ifodalangan xususiyatlari yoritilgan. Bunda “Gold” konsepti hayotiy belgilar orqali tirik mavjudotlar, ularning holati va faoliyatini aks ettirmoqda.

Shuningdek, “Gold” konsepti turli yoshdagi juda tez-tez uchraydigan belgilarga ega: yoshlik, qarilik. Misol uchun:

*Seit alten Gold / Im alten Gold*³⁵ – “Eski oltin” – Bu yerda “oltin”ning qarilikni va vaqt o‘tganligini ifodalashdagi aloqasi ko‘rsatilmoqda.

O‘z navbatida hayotiy belgilar zoomorf belgilar va antropomorfik belgilarga bo‘linishini qayd etib o‘tamiz. Nemis tilida “Gold” konsepti hayotiy belgilarining aksariyati tirik mavjudotlarning xususiyatlarini aktuallashtiradi, ularning individual xususiyatlarini bevosita yoki bilvosita “oltin/Gold” konseptining zoomorfik belgilari orqali ko‘rsatadi.


Misol uchun, quyidagi jumlalar zoomorfik xususiyatlarning qanday qo‘llanishini ko‘rsatadi:

³⁵ Vandenberg Ph. Der König von Luxor. – Köln: Verlag, Lübbe, 2003. – 732 S.

Das Gold des Adlers – bu ibora “oltinning” yuksak va qadrli holatini, yuksaklikni, shuningdek, ajralib turishni ta’kidlaydi. Qush, ayniqsa burgut kabi, olovli va kuchli tasvirni o’zida mujassamlashtiradi.

Tadqiqotda “Gold” konseptining turli belgilari statistik metod yordamida tahlil qilindi. Natijalar, “oltin” konsepti turli shakllarda va jihatlardagi belgilarga ega ekanligini ko’rsatdi. Jumladan, vegetativ belgilarga ega misollar 15 ta, bu uning tabiat, o’sish va rivojlanish bilan bog’liqligini bildiradi. Hayotiy belgilarga ega misollar 72 ta bo’lib, odamlar va insoniyat tarixi bilan bog’liqligini ta’kidlaydi. Zoomorfik belgilarga ega 25 ta misol hayvonot dunyosi bilan aloqadorligini ko’rsatadi. Fazoviy xususiyatlarga ega misollar 73 ta bo’lib, tabiiy va madaniy makonlar bilan bog’liqligini ifodalaydi. Audiovizual va rangli xususiyatlarga ega misollar 24 ta, estetik jihatlarni aks ettiradi. Miqdoriy belgilarga ega misollar 21 ta bo’lib, son, o’lcham va qiymat bilan bog’liq. Shunday qilib, tadqiqotimizda “oltin” konseptining har bir jihati o’ziga xos va boy mazmuni aks ettirganligi aniqlangan.

Quyida ushbu ko’rsatkichlarning foiz hisobida ifodalanishi diagramma shaklida taqdim etiladi:



2-rasm. “Oltin” konsepti har bir jihatining aks ettirilganligi

Shunday qilib, “Gold” konsepti nafaqat material boylukni, balki sir, bilim va ma’naviyatni ifodalash orqali keng tarqalgan mental xususiyatlarga ega bo’lib, nemis milliy mentalitetida uning roli katta. “Oltin” konseptining konseptual va kategorial yondashuv asosidagi logik va falsafiy-mental konsepsiyalarning uyg’unlashuvi, uning nafaqat iqtisodiy boylukni, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarni ham o’z ichiga olgan kompleks tushuncha ekanligini ko’rsatadi.

Tadqiqot ishining **“Nemis va o‘zbek tillarida “oltin” konseptining kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Oltin” konseptining konseptualizatsiya va kategorizatsiya munosabatlari, uning konseptual tahlil asoslari, shuningdek, “Oltin va boylik” konseptlari tavsifiga kategorial yondashuv orqali o‘zbek va nemis tillarida “oltin” konseptining semantik-kognitiv xususiyatlari o‘rganiladi va turli manbalardan olingan ko‘p sonli misollar tahlili asosida ushbu xususiyatlar ochib beriladi.

Konseptualizatsiya va kategorizatsiya tilshunoslik, psixologiya va falsafada muhim mavzulardan hisoblanadi. Konseptlar atrofimizdagi dunyo va voqealarni tushunishga yordam beradi, ularni qanday qabul qilishimiz esa fikrlash jarayoniga bog‘liq.

“Kategoriyalash” obyektlarni yoki tushunchalarni guruhlariga bo‘lish jarayonidir. “Oltin” konseptini kategoriyalashda kimyoviy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olish mumkin. Misol uchun, kimyoviy konseptlar oltinning fizik xususiyatlarini, ijtimoiy konseptlar esa uning madaniy va iqtisodiy ahamiyatini aks ettiradi.

“Oltin” konsepti misolida tushuncha va ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida e’tiborga loyiq. S.D. Lixachev va V.V. Kolesov³⁶ ularni tenglashtirsa, V.V. Krasnix, I.A. Sternin, V.I. Karasik va G.G. Slishkin buning qarshi fikrini bildiradi. “Oltin” nafaqat metall sifatida, balki ong orqali voqelikni tushunishga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ham qaraladi. Tushuncha – aqliy kategoriya, konsepsiya esa kognitiv ong hodisasi bo‘lib, u til orqali ifodalangan bo‘lishi mumkin.

Kognitologiya esa turli fanlar chorrahasida shakllangan bo‘lib, bilimni yig‘ish va qo‘llash usullarini o‘rganadi. H. Gardner³⁷ fikricha, bu soha falsafa, psixologiya, lingvistika, sun‘iy intellekt, antropologiya va nevrologiyani birlashtirib, tabiiy va sun‘iy tizimlarda bilimni qayta ishlash va qo‘llash muammolarini hal etishga qaratilgan.

Ko‘rsatilgan sohalar hamkorligida shakllangan kognitologiyaning “tug‘ilish” sanasi 1956-yilning 11-sentyabridir. Ayni shu kuni Massachuset texnologiya institutida o‘tkazilayotgan simpoziumda uch ma’ruza tinglandi. Birinchi ma’ruzaning (“7+2 sehrli soni”) muallifi, eslab qolish qobiliyatini 7+2 me’yorida belgilovchi Miller qonunining asoschisi psixolog Jorj Miller edi³⁸. “Tilning uch modeli”³⁹ deb nomlangan ikkinchi ma’ruza tilshunos Noem Chomskiy tomonidan taqdim etildi. Nihoyat, uchinchi ma’ruza “Logic Theory Machine”⁴⁰ (“Logik nazariyotchi”) mavzusida bo‘lib, sun‘iy intellekt sohasi bo‘yicha mutaxassis Alen Nyuell va bo‘lg‘usi Nobel mukofoti sohibi, iqtisodchi Herbert Saymonlar hammuallifligida bitilgan edi. “Oltin” konsepti esa shu simpoziumda bilish

³⁶ Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН. – СЛЯ – 1993, №1. – С. 3-9; Колесов В. В. Язык и ментальность /Русистика и современность. Т.1. Лингвокультурология и межкультурная коммуникация. – СПб, 2005. – С. 12-16.

³⁷ Gardner H. The mind is new science. A history of the cognitive revolution. – USA: BasicBooks, 1987. – P. 209-216.

³⁸ Miller G. A. The magical number seven, plus or minus two: Some limits on our capacity for processing information. *Psychological Review*, 63(2). – Oxford, 1956. – P. 81–97.

³⁹ Chomsky N. Review: B. F. Skinner’s Verbal Behavior // *Language*, 1959. v. – 114 p.

⁴⁰ Newell Allen and Simon Herbert A. The Logic Theory Machine. – California, 1956. – P. 868.

faoliyatining tahlilida mavjud bo‘lib, tushuncha va bilimning “oltin” ko‘rinishini aks ettiradi.

“Oltin” konsepti uning semantik maydonida lingvistik ifodalanishi va mazmunining rivojlanishini ko‘rsatadi. Bu jarayonda oltin, mavhumlikdan aniq tasavvurlarga o‘tib, mukammallik va haqiqiy qadriyatni tasvirlovchi element sifatida namoyon bo‘ladi. Oltin faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki tarixiy, madaniy va diniy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Rim imperiyasida oltin tanga sifatida ishlatilgan, bu hukmdorlarning kuchi va boyligini ko‘rsatgan.

An’anaga ko‘ra, obyektlarni guruhlariga ajratishning sababi ularning o‘xshashliklaridir. O‘xshashlik ikki ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: refleksiv (obyekt har doim o‘ziga o‘xshaydi) va simmetrik (obyektlar o‘xshashligi tartibi o‘zgarmas). Simmetrik munosabatlar murakkab jarayon bo‘lib, obyektlarni qiyoslash xususiyatlar asosida amalga oshiriladi.

Nihoyat, qiyoslash namunasini tanlash sababi psixologik qonuniyatlarga asoslanishi mumkin. Ushbu psixologik qonuniyatlarning o‘zi ham turli-tuman, ularni yagona bir majmuaga to‘plash qiyin masala. E.Rosh va uning shogirdlari o‘tkazgan tajribalarida Geshtalt psixologiyadan⁴¹ ma’lum bo‘lgan “yaxshi” yoki “yomon” obrazlar tushunchasiga tayanadilar⁴². Binobarin, “lingvistik geshtaltlar” tadqiqotining muallifi J.Lakoffning kuzatishicha, “oltin” va “qimmatbaho toshlar” “boylik” turkumiga kiruvchilar uchun tayanch kategoriyadir, chunki ularda (“oltin” va “qimmatbaho”) inson tasavvuridagi belgilar yuqori miqdorda to‘plangan⁴³.

Geshtalt negizida turadigan tayanch obyektini E.Rosh prototip (prototype) deb ataydi⁴⁴. Prototip qiyoslash gorizontali, ya’ni to‘g‘ri qatorli tartibda bajarilganda, qiyoslashning tayanch obyektini sifatida ajraladi. Prototip kategoriyaga kiruvchi barcha obyektlar uchun umumiy, eng ko‘zga tashlanadigan xususiyat yoki belgiga ega bo‘lishi kerak va faqat shundagina u qiyoslash uchun namuna xizmatini o‘tashi mumkin.

Oltin so‘zi ko‘p ishlatiladigan leksik birliklar oltin bilan bezatilgan hashamatli buyumlarni ifodalashda ishlatiladi. Quyidagi jadvalda leksik birliklarni guruhlariga ajratib, nemis va o‘zbek tillarida hashamatli buyumlarni ifodalashda ishlatiladigan “oltin” konseptining semantik-kognitiv xususiyatlarini quyidagicha tasnifladik:

3-jadval

“Oltin” konseptining semantik-kognitiv xususiyatlari

Umumiy kategoriya	Konkret obyekt	Obyektning aniq nomi va sifati	Obyektning foydalanish maqsadi yoki ijtimoiy roli
Taqinchoqlar	Goldene Armreifen	oltin bilaguzuk	ayollar va erkaklar taqinchoqlari
	Goldene Ketten	oltin zanjirlar	

⁴¹ Geshtaltpsixologiya (nem. Gestalt – shakl, obraz, qiyofa, tashqi ko‘rinish va psixologiya) – psixologiyadagi oqimlardan biri. 20-asrning 20–30-yillarida Germaniyada yuzaga kelgan.

⁴² Rosh E.H. Principles of CoteORIZATION// Rosh E.H., Lloyd B.B Cognition and CoteORIZATION. – Hillsdale, 1978. – P. 27-48.

⁴³ Лакофф Вж. Мышление в зеркале классификаторов/ Пер.с англ. Р.И.Розиной // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII/ Когнитивные аспекты языка. – М., 1988. – С. 12-21.

⁴⁴ Rosh E., Mervis C. Family resemblances: studies in the internal structure of categories // Cognitive Psychology, 1975. – P. 573-604.

	Goldene Schmuck/ Brustschmuck	zargarlik buyumlari	
	Goldene Ringe	oltin uzuklar	
	Die Schmuckstücke	taqinchoqlar	
Kiyimlar	Gewand aus Gold	oltin xalat	oltin bilan bezatilgan kiyimlar
	Goldspangen über der Seide	ipak ustidagi tilla qisqichlar	
	Seide mit Gold zu besticken	ipakni tilla bilan tikmoq	
Jangovor buyumlar	Auf dem Schild Goldene Löwe	qalqonda oltin sher	ritsarlarning oltin bilan bezatilgan qalqonlari
	Goldgeränderte Schilde	oltin qirrali qalqonlar	
Bezакlar	Goldrote Sättel	oltin rangli egar	otlar jilovlarining oltin bilan bezatilishi
	in Goldenem Zaumzueg	oltindan yasalgan jilov	
	Glocken aus rotem Gold	qizg'ish oltin rangli qo'ng'iroqchalar	
Idishlar	Goldene Becher	oltin qadahlar	oltin idishlar
	Schüssel und Becker aus dem Gold	oltin kosa va qadahlar	
Mebellar	Goldene Sesseln	oltin kreslo	mebel va ichki jihozlar
	Die Kissen mit Gold verziert	oltin bilan bezatilgan yostiqlar	
Atributlar	Goldene Rute	sehrli oltin tayoqcha va boshqalar	davlat atributlari

Bu tasnifda, “oltin” konsepti turli leksik birliklar orqali ifodalangan, bu leksik birliklarning har biri o‘zining semantik ma’nosi va kognitiv roli orqali umumiy konseptga – oltinning boylik, hashamat va status ramzi sifatida ishlatilishini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning “**Nemis va o‘zbek tillarida “oltin” konseptining frazeologik va paremiologik tadqiqi**” nomli uchinchi bobida “Oltin” konsepti ifodalangan nemischa-o‘zbekcha paremiologik va frazeologik birliklar tavsifi, uning leksik, frazeologik va paremiologik reprezentatsiyasi, shuningdek, “Kiyim” konseptida “boylik” konsepti bilan uyg‘unlashadigan leksik vositalarning voqelanishi va qimmatbaho toshlarning “boylik” va “oltin” konseptlari bilan uyg‘unlashuvi hamda farqlanishi konseptualizatsiyasi bir butun holda o‘rganiladi.

“Oltin” konseptining frazeologik va paremiologik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki tilning madaniy va axloqiy jihatlarini ham ochib beradi. Bu tahlillar til dinamikasi, tilorqa elementlar hamda turli xalqlarning dunyoqarashini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Agar “oltin” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklar – “*Schwarzes Gold*” va “*Weises Gold*”ni olib ko‘rsak, bu iboralar nafaqat tildagi semantik (ma’nodagi) o‘zgarishlarni, balki ular orqali jamiyatning iqtisodiy va madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi:

*Schwarzes Gold – Kohle und Erdöl*⁴⁵ (*Qora oltin – Ko‘mir yoki neft*)

Bu ibora tildagi frazeologizm sifatida, ko‘mir va neft kabi tabiiy resurslarning iqtisodiy va madaniy ahamiyatini ta’kidlaydi. “Qora oltin” ifodasi, shuningdek, ma’lum bir jamiyatda mehnat va ishlab chiqarishning asosiy resurslarini bildiradi.

⁴⁵ <https://www.burg-halle.de/en/article/details/a/schwarzes-gold-kohle-und-erdoel-johanna-rogalla>

“Oltin” konseptining frazeologik ma’nalari o‘zgaruvchan bo‘lib, ideologik kontekstga bog‘liq. U nafaqat boylik va saxovatni, balki ma’naviy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Frazeologizmlarda oltin rangi ko‘pincha yashirin shaklda namoyon bo‘ladi va jamiyatning iqtisodiy hamda axloqiy qadriyatlarini – mehnat, sabr-toqat, farovonlikni aks ettiradi. Quyidagi misollar o‘zbek tilida “oltin” konsepti kontekstga qarab qanday ma’nolar kasb etishini ko‘rsatadi.

4-jadval

“Oltin” konseptining frazeologik tahlili

T/r	Frazeologizm	Ma’no
1	Oltin – balchiqda ham oltin	Haqiqiy qiymat har doim ko‘rinadi, yaxshi narsa har doim qiymatli bo‘ladi
2	Yer qazimasang, oltin chiqmas	Mehnatsiz yutuqqa erishib bo‘lmaydi
3	Oltin o‘tda bilinar, odam – mehnatda	Mehnat orqali qiymatga erishiladi
4	Qo‘ldagi oltinning qadri yo‘q	Bor narsaning qadri kam bo‘ladi, uning qiymatini sezish uchun uni yo‘qotish kerak
5	Ona yurtning – oltin beshiging	Vatan qadri, ona yurti eng qadri bo‘ladi
6	Haqiqat oltindan qimmat	Haqiqat har qanday boylikdan, oltindan ham qimmat bo‘ladi
7	Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmi	Bilim va ma’naviyat oltindan qimmatroq
8	Hikmat – bir hovuch oltin	Hikmat va bilim – eng katta boyliklardan biri
9	Aql aynimas, oltin chirimas	Aql va bilim hech qachon yomonlashmaydi, ular abadiy qadri
10	Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol	Bilim, oltindan ham qimmat va muhimroq
11	Yuz tuman oltindan hunar yaxshi	Hunar va mahorat oltindan ham qimmatroq
12	Odob – oltindan qimmat	Odamning axloqi va odobi oltindan ham qimmat
13	Sabr so‘nggi – so‘m oltin	Sabrning oxirida mukofot bo‘ladi, sabr qiladi odam
14	Sabr tagi – sari oltin, sabr bilan chiqar oting	Sabr natijasida yuksak natijalar va mukofotlar keladi
15	Qanoat – qizil oltin	Qanoat – eng yuqori qadriyatlardan biri
16	Oltin yerda qolmas, yaxshilik – yo‘lda	Yaxshi ishlar doimo o‘z qadrini topadi
17	Yaltiroq narsa oltin bo‘la bermas	Ko‘rinishi yorqin narsalar har doim haqiqiy qiymatni anglatmaydi
18	Xotining oltinga o‘ch bo‘lsa, zargarga o‘ynash bo‘lar	Havas va tamakilik odamlarni chalg‘itadi
19	Oltin chiqqan joyni odam bo‘yi qazi	Boylikni topish uchun ko‘p mehnat qilish kerak
20	Yosh chog‘im – oltin chog‘im	Yoshlik va imkoniyatlar eng qimmatli davrdir
21	Bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla	Bir odamni qarorlar qabul qilishi mumkin, lekin ikki fikr ham ko‘proq ma’lumot va yondashuvni anglatadi
22	Kallam bor – bir qop tillam bor	Donolik va bilganlik qimmatli narsa

Ushbu jadvaldagi misollar orqali o‘zbek tilida “oltin” konsepti jamiyatning muhim qadriyatlarini va mehnatning qadrini tushuntiradi, va bu frazeologizm jamiyatda yashirin, lekin juda muhim tasavvurlarni ifodalashda foydalaniladi.

Quyidagi nemis tilidagi “oltin” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklar va ularning o‘zbekcha talqinlari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarni, balki yashirin, kontekstga bog‘liq ma’nolarni ham aks ettiradi. Rang va simvollar, jumladan oltin, frazeologizmlarda turli kontekstlarda o‘zgarib, axloqiy va ma’naviy mazmun kasb

etadi. Misollar orqali bu birliklarning qanday faollashishi va qadriyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

5-jadval

“Oltin” konseptining nemis tilidagi frazeologik tahlili

T/r	Nemischa frazeologizm	O‘zbekcha muqobili
1	jmdm. goldene Berge versprechen	Kimgadir qop-qop vada bermoq
2	Reden ist Silber, Schweigen ist Gold	Sukutda hikmat ko‘p
3	Es ist nicht alles Gold, was glänzt	Yaltiroq narsa oltin bo‘la bermas.
4	Jedes Wort auf die Goldwaage legen	Avval o‘yla, keyin so‘yla
5	Ein Herz aus Gold haben	Yaxshi qalbga ega bo‘lish
6	Morgenstund hat Gold im Mund	Erta turgan kishini, Xudo o‘nglar ishini
7	Sich eine goldene Naze verdienen	Ajoyib obro‘ qozonish
8	Mit einem goldenen Löffel im Mund geboren sein	Beshikdagi bolasigacha tuvagi tilladan
9	Echtes Gold wird klar im Feuer	Oltin o‘tda bilinar, odam — mehnatda.
10	Viele Köpfe, viele Sinne	Bir kalla kalla, ikki kalla tilla
11	Gedult bringt Rosen	Sabr tagi zar oltin

Ushbu misollar oltin konseptiga oid frazeologik birliklarning xilma-xilligini ko‘rsatadi. Ular jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy qadriyatlarini ifodalaydi hamda til boyligini oshirish va jamiyat fikrini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek xalq maqollarida “oltin” konsepti ko‘pincha metaforik ma’noda qo‘llanadi. Oltinning noyobligi va qadri uni inson ongida kuchli timsolga aylantiradi. Bu konsept turli ijtimoiy va madaniy ma’nalarda ifodalanadi. Masalan, *Yosh chog‘im – oltin chog‘im*⁴⁶ maqolida yoshlik davri oltindek qimmatli va noyob davr sifatida talqin etiladi.

Yozuvchilar “oltin” konseptidan ko‘pincha insonning maqsad va intilishlarining ramzi sifatida foydalanadi. U, bir tomondan, moddiy boylikni ifodalaydi, boshqa tomondan esa ba’zida ruhiy iztirob, tashvish va ichki kurashning timsoliga aylanadi. Oltin bu holatda shaxsiy narsalar, xotirjamlik va xavotirlar bilan bog‘liq murakkab hissiyotlarni aks ettiradi.

Mo‘min:...

*Oltin solingan xaltachani berkitmoqchi bo‘lib joy qidiradi. Ko‘rpaning tagiga qo‘ysa, do‘ppayib qoladi. He, do‘ppaymay o‘l!*⁴⁷

Parchadagi “oltin” konsepti moddiylik bilan bir qatorda, personajning ichki ezilish va ruhiy qiyinchiliklarini ham ifodalagan.

Leksik jihatdan “oltin” odatda yuqori qiymatga ega, qimmatbaho narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Uning leksik ma’nalari har ikki tilda o‘xshash bo‘lsa-da,

⁴⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://izoh.uz/word/chog%E2%80%98im>

⁴⁷ Vohidov E. Saylanma. Birinchi jild. Ishq savdosi. – Toshkent: “Sharq” nashriyot matbaa-konserni, 2000. – 368 b.

madaniy va tarixiy konteksti farq qiladi. Quyida bu konseptning leksik ifodalanishi qiyosiy jadvalda keltiriladi:

6-jadval

“Oltin” konseptining leksik reprezentatsiyasi

Leksik birlik	O‘zbek tili	Nemis tili
Oltin / Gold	Qimmatbaho metal, yuksak qiymatga ega bo‘lgan va ko‘pincha boylik yoki muvaffaqiyatni anglatadigan tushuncha.	Qimmatbaho metal, boylik, muvaffaqiyat va yuksak ahamiyatni anglatadi.
Oltin taqinchoq / Goldschmuck	Zargarlik buyumlari, o‘zgarmas boylik	
Oltin bo‘lagi / Goldstück	Oltin bo‘lagi, shuningdek qimmatbaho narsa yoki qiymatli narsa sifatida ishlatiladi.	

Bu jadvalda “oltin” so‘zining leksik ma’nolari nemis va o‘zbek tillarida solishtirilgan. O‘zbek tilida, “oltin” konsepti qimmatbaho metal va boylikni, nemis tilida esa “Gold” konsepti boylik, muvaffaqiyat va yuksak ahamiyatni anglatadi.

Frazeologizmlar “oltin” konseptini turli kontekstlarda kengaytirib, odatda biror narsa yoki odamning yuqori qiymatini yoki yuksak sifatini ta’kidlaydi. Quyidagi jadvalda biz “oltin” konseptining frazeologik reprezentatsiyasini ko‘rsatishga harakat qilamiz:

7-jadval

“Oltin” konseptining frazeologik reprezentatsiyasi

Frazeologizmlar	O‘zbek tili	Nemis tili
Oltin qo‘l	Juda mohir yoki yaxshi ishni bajaradigan kishi.	Goldene Hände haben (oltin qo‘llarga ega bo‘lmoq) – juda mohir yoki yaxshi ish qiladigan kishi haqida.
Oltin yurak	Mehribon, yaxshi niyatli kishi.	Ein goldenes Herz haben (oltin yurakka ega bo‘lmoq) – mehribon, yuksak qalbli kishi haqida.
Oltin suvi	Qimmatbaho yoki muhim narsa.	Goldene Zeiten – yaxshi, farovon davr.

Bu jadvalda “oltin” konsepti bilan bog‘liq frazeologizm va iboralarning nemis va o‘zbek tillaridagi ifodalari taqqoslangan. O‘zbek tilida, “*oltin qo‘l*”⁴⁸ va “*oltin yurak*”⁴⁹ iboralari juda mohir, mehribon va yaxshi niyatli kishilarni tasvirlaydi. “*Oltin suvi*”⁵⁰ esa qimmatbaho yoki muhim narsalarni anglatadi. Nemis tilida esa, xuddi shunday ma’nolarga ega iboralar mavjud: “*Goldene Hände haben*”⁵¹ (*oltin qo‘llarga ega bo‘lmoq*), “*Ein goldenes Herz haben*”⁵² (*oltin yurakka ega bo‘lmoq*), va “*Goldene Zeiten*”⁵³ (*yaxshi, farovon davr*). Ushbu frazeologizmlar ikkala tilda ham insonning yaxshi sifatlarini va muvaffaqiyatli davrlarni ifodalaydi.

Paremiologik ifodalar (maqollar, hikmatlar) madaniy va tilshunoslik jihatdan juda boydir. “Oltin”ni tasvirlaydigan maqollar va hikmatlar, odatda, boylik,

⁴⁸ <https://uz.wiktionary.org/wiki/oltin>

⁴⁹ <https://akbt.urspi.uz/uz/books/1367>

⁵⁰ <https://uz.wiktionary.org/wiki/oltin>

⁵¹ <https://www.openthesaurus.de/synonyme/goldene%20H%C3%A4nde%20haben%29>

⁵² <https://www.dwds.de/wb/ein%20goldenenes%20Herz%20haben?o=Ein+goldenenes+Herz+haben>

⁵³ https://en.wikipedia.org/wiki/Goldene_Zeiten

muvaffaqiyat, yuksak qadriyatlar yoki qadrlangan insonlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Endi paremiologik birliklar orqali ifodalangan “oltin” konseptiga doir misollarni tahlil qilib ko‘ramiz.

8-jadval

“Oltin” konseptining paremiologik birliklar bilan ifodalanishi

Paremiologik ifodalar	O‘zbek tili	Nemis tili
Kumush kunga qo‘nsa, oltin o‘z oyog‘i bilan qo‘nar	Boylik va muvaffaqiyatni yuksak mehnat va to‘g‘ri yo‘l orqali olish kerakligini anglatadi	–
Hunari borning oltin bilagi bor	Mehnat, mahorat va hunar insonni muvaffaqiyatga olib keladi, degan ma‘noni anglatadi	–
treu wie Gold sein	–	Sadoqatini, ishonchliligini va sadoqatli bo‘lishini ta‘riflaydi
Wer den Pfennig nicht ehrt, ist des Talers nicht wert	–	Kichik narsalarni qadrlash orqali katta narsalar ham qadrlanishini anglatadi

Jadvalda “oltin” konsepti bilan bog‘liq paremiologik ifodalar nemis va o‘zbek tillarida solishtirilgan. O‘zbek tilida “*Kumush kunga qo‘nsa, oltin o‘z oyog‘i bilan qo‘nar*”⁵⁴ ifodasi boylik va muvaffaqiyatni yuksak mehnat va to‘g‘ri yo‘l orqali olish kerakligini anglatadi, shuningdek “*Hunari borning oltin bilagi bor*”⁵⁵ ifodasi mehnat, mahorat va hunar insonni muvaffaqiyatga olib kelishini anglatadi. Nemis tilida esa “*treu wie Gold sein*”⁵⁶ ifodasi sadoqatni, ishonchlilikni va sadoqatli bo‘lishini anglatadi, “*Wer den Pfennig nicht ehrt, ist des Talers nicht wert*”⁵⁷ ifodasi kichik narsalarni qadrlash orqali katta narsalar ham qadrlanishini, boylikni qadrlash zarurligini bildiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, “oltin” konseptining leksik, frazeologik va paremiologik reprezentatsiyasi haqida xulosalar keltiramiz:

9-jadval

“Oltin” konseptining leksik, frazeologik va paremiologik reprezentatsiyasi

Jihat	Xulosa
Leksik jihatdan	“oltin” konsepti har ikkala tilda ham qimmatbaho material va boylikni anglatadi, lekin uning madaniy konteksti va ishlatilishidagi farqlar mavjud. O‘zbek tilida oltin ko‘proq boylik, yuksak qiymat va qadriyatlarni ifodalasa, nemis tilida ham oltin ayni ma‘nolarni anglatadi, lekin u ko‘proq axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan bog‘lanadi.
Frazeologik jihatdan	“oltin” konsepti, yuksak sifat, mehribonlik, mohirlik kabi ijobiy sifatlarni ifodalashda ishlatiladi. Bu frazeologizmlar orqali xalq o‘zining qadriyatlari va madaniyatini aks ettiradi.
Paremiologik jihatdan	“oltin”ning tasviri, odatda, boylik, muvaffaqiyat va to‘g‘rilik kabi tushunchalar bilan bog‘lanadi, bu esa har ikki tilda ham axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

⁵⁴ Xamdamova G. X. Somatik paremlar lug‘ati. – Buxoro: Kamolot nashriyoti, 2023. – B. 36.


⁵⁵ O‘sha asar. – B. 41.

⁵⁶ https://www.redensarten-index.de/suche.php?suchbegriff=Wer%2Bden%2BPfennig%2Bnicht%2Behrt%2Bist%2Bdes%2BTalers%2Bnicht%2Bwert&bool=relevanz&gawoe=an&sp0=rart_ou&sp1=rart_varianten_ou

⁵⁷ https://www.redensarten-index.de/suche.php?suchbegriff=Wer%2Bden%2BPfennig%2Bnicht%2Behrt%2Bist%2Bdes%2BTalers%2Bnicht%2Bwert&bool=relevanz&gawoe=an&sp0=rart_ou&sp1=rart_varianten_ou

Shu tarzda, “oltin” konsepti ikki tilda ham yuksak qiymat, boylik, halollik kabi umumiy tushunchalarni anglatish bilan birga, madaniy va ijtimoiy kontekstga qarab turli xil xususiyatlarni namoyon etadi.

“Oltin” konsepti har ikki tilda ham boy ma’no kasb etib, yuksak qadriyat, boylik va halollik ramzi sifatida madaniy kontekstga qarab turlicha talqin qilinadi. Masalan, nemis folklorida kuch va nobillik timsoli bo’lsa, o‘zbek tiliga tarjima orqali bu tushuncha sadoqat va ma’naviyat bilan boyiydi. Turli misollar asosida “oltin” konsepti til va madaniyatda qanday ifodalangani quyidagi diagrammada aks ettiriladi.



3-rasm. “Oltin” konseptining til va madaniy qatlamdagi turli ifodalari

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, leksik qatlamda “oltin” moddiy boylikni, paremiologik qatlamda boylik, qadriyat va farovonlikni, frazeologik qatlamda esa yuksak sifatlar, mohirlik va ma’naviyatni ifodalaydi.

Demak, oltin va qimmatbaho kiyim-kechaklarning uyg‘unlashgan, bog‘lanadigan va farqlanadigan xususiyatlari boylik hamda oltin konseptlarining yo‘nalishiga mos ravishda to‘liq bo‘linadi.

XULOSA

Nemis va o‘zbek tillarida “oltin” konseptining kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy yondashuvlar, ilmiy-nazariy manbalarni o‘rganish hamda badiiy asarlar va turli manbalardan to‘plangan misollar namunasida “oltin” konseptini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Nemis tilidagi “Gold” konsepti etimologik, ta’riflovchi xususiyatlar va leksik muvofiqlik asosida murakkab strukturaga ega bo‘lib, bu konseptning semantik va kognitiv jihatlari chuqur tahlilni talab etadi. Shuningdek, bu konseptning turli tillarda o‘ziga xos tafsirlanishi va ifodalanishi lingvistik tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

2. “Gold” konsepti tarkibidagi asosiy belgilar antropomorfik, fazoviy, miqdoriy, haqiqatga yaqin hayotiy va obyektiv xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu belgilar konseptual tizimdagi o‘zgarishlarni va dinamikani anglatib, nemis

tilidagi "Gold" konseptining keng kontekstda qanday shakllanishini va ifodalanishini ko'rsatadi.

3. Assotsiativ eksperimentlar orqali "Gold" konseptining lingvistik va kognitiv qiyofasini o'rganish, shu bilan birga, bu konseptning insonning turli faoliyat turlari bilan bog'liq leksik vositalar orqali ifodalanishini aniqlash ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishini tashkil etadi. Bu yondashuv til va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tushunishga yordam beradi.

4. Tillar orqali voqelikni konseptuallashtirish va kategoriyalashning lingvistik mexanizmlari insonning dunyoqarashi, ma'naviy va amaliy faoliyatiga asoslanadi. Zamonaviy tilshunoslikda bu jarayon tilni tadqiq qilishda asosiy yondashuvlardan biriga aylangan bo'lib, tilshunoslar tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniyat va dunyoqarashni ifodalovchi tizim sifatida ko'rib chiqmoqdalar.

5. Kognitiv tilshunoslik sohasida til orqali bilimlarni olish, saqlash va uzatish mexanizmlarini o'rganish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu bilimlar qanday qilib til yordamida kognitiv tizimga joylashtirilishi va etnik guruhlar tomonidan dunyoning lisoniy qiyofasini shakllantirishda ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi.

6. Kategoriyalar va konseptualizatsiyalar lingvistik tadqiqotlarda markaziy tushunchalar sifatida tan olinadi. Ular dunyo haqidagi bilimlarni tizimlashtirish va ifodalash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchilar bu kategoriyalar yordamida tilning dunyoni qanday tasvirlashini va insonning kognitiv jarayonlarini qanday aks ettirishini o'rganmoqdalar.

7. Konseptual tadqiqotlar dunyo haqidagi bilimlarni ifodalovchi tuzilmalarni va tilda bilimlarni konseptual tashkil etish usullarini o'rganishga qaratilgan. Bu tadqiqotlar tilning har bir elementining semantik va kognitiv rolini tushunishga yordam beradi, shuningdek, til orqali ilmiy va madaniy bilimlarni qanday uzatish mumkinligini o'rganadi.

8. "Boylik" va "oltin" konseptlarining konseptual va kognitiv muammolari qadimdan insonni qiziqtirib kelgan. Ushbu konseptlar dunyoning lisoniy va konseptual qiyofasining asosiy elementlari sifatida, shuningdek, insoniyatning qadriyatlari va ijtimoiy tuzilmalari bilan chambarchas bog'langan. Tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish, ularga doir mifo-poetik tasvirlarni tahlil qilish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

9. "Boylik" konsepti har qanday xalqda mifologik va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bu konsept afsona va rivoyatlarga asoslanib, xalqning dunyoqarashini va hayotiy tajribalarini ifodalaydi. Dunyoning mifopoetik qiyofasiga murojaat qilish orqali boylik va oltin tushunchalarining tilda qanday aks etgani o'rganiladi.

10. "Boylik" va "oltin" konseptlari arxaik sivilizatsiyalarda aylana shaklida ifodalanadi, bu esa lingvistik tahlilda o'ziga xos yondashuvlarni shakllantiradi. Shuningdek, dialektik materializm va nisbiylik nazariyasining tadqiqotlar orqali "Boylik" va "Makon" konseptlariga nisbatan ilgari surilgan nazariyalar va yondashuvlar tilshunoslikda yangi istiqbollarni ochadi.

11. Mazkur tadqiqot doirasida erishilgan natijalar asosida konseptlar tahliliga oid kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun bir qator istiqbolli yo'nalishlar mavjud. Xususan, konseptlarning turli madaniyat va tillarda ifodalanish xususiyatlarini

chuqurroq o'rganish, ular bilan bog'liq metaforik va semantik strukturalarni tahlil qilish, shuningdek, konseptlarning ommaviy madaniyat, adabiyot va kundalik nutqdagi aksini aniqlash istiqbolli tadqiqotlar yo'nalishi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, konseptual tahlilning zamonaviy yondashuvlari – kognitiv xaritalash, assotsiativ metodlar va lingvokulturologik modellar asosida yanada kengaytirilgan tadqiqotlar olib borish lozim. Ushbu yo'nalishlar til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga, shuningdek, konseptlarning milliy va madaniy xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan yoritishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

МАМАНИЯЗОВ ХУСНИДДИН ТОШМУРОДОВИЧ

**КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА “ЗОЛОТО” В НЕМЕЦКОМ И
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Fil2572.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:

Эргашев Илхом Юлдошевич
кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Хайруллаев Хуршидjon Зайниевич
доктор филологических наук, профессор

Ахмедов Анвар Ботирович
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
доцент


Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится «18» марта 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарин, 43. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована под № 62797). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарин, 43. Тел: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «26» февраля 2026 г.
(реестр протокола рассылки № 10 от «26» февраля 2026 г.)



Н.З. Насрулаева

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселёв

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В лингвистических исследованиях мирового уровня содержание концептуальных понятий, их грамматические и семантические значения, выраженные в рамках текста, а также вопросы определения их структур являются объектом множества научных работ. Несмотря на то, что в современной лингвистике, в области когнитивной лингвистики и лингвокультурологии, уделяется большое внимание изучению отдельных концептов, систематические исследования, посвященные сравнительному анализу концепта «золото» на материале различных языков, встречаются довольно редко. Кроме того, анализ языкового материала в этих исследованиях в основном ограничивается синхронным подходом, то есть изучением словарного запаса языка, грамматики и фонетических особенностей. Процесс познания мира, описание сходства, различий и роли рассматриваемых концептов в культуре и повседневной жизни различных обществ, а также анализ менталитета этих обществ и выявление причин возникновения типичных национальных представлений подтверждают актуальность данного исследования.

Несмотря на то, что в мировой лингвистике регулярно проводятся исследования, посвященные изучению и анализу концепта «золото», проблемы, связанные с распространением и методами выражения когнитивных, лингвокультурологических, ментальных и других логических значений концепта «золото» в художественных текстах, на основе материала многих языков еще не были полностью и глубоко исследованы. С учетом вышеописанного возникает необходимость исследования выражения когнитивного и лингвокультурологического значения концепта «золото» в текстах, полученных из различных источников. В этом контексте научные исследования, проводимые в области лингвистики, имеют важное значение для решения поставленных проблем.

Независимо от того, что независимость создала все необходимые условия для развития национальной лингвистики на основе мировых передовых стандартов, она также возлагает ответственность за выражение отношения к этим стандартам, исходя из многовекового национального мировоззрения. Процесс интеграции Узбекистана в мировое сообщество, быстрый рост внешних связей в различных отраслях народного хозяйства открывает путь для развития системы образования и науки, связанной с подготовкой кадров, одновременно возлагая на нее важные задачи. В настоящее время в нашей стране основное внимание уделяется «созданию эффективных механизмов стимулирования научно-исследовательской и инновационной деятельности, внедрению достижений науки и инноваций». В последние годы Республика Узбекистан перешла к реализации реформ, направленных на кардинальное обновление всех сфер государственной и общественной жизни. Современная жизнь требует постоянного обогащения научных областей новыми

подходами, идеями и принципами анализа, что в свою очередь предполагает проведение научных исследований и изыскания по различным направлениям. С этой точки зрения, изучение проявления когнитивного и лингвокультурологического значения концепта «золото» в художественных текстах и его сравнительно-типологический анализ приобретают особое значение.

По словам нашего Президента Шавката Мирзиёева: «Если наши дети знает иностранные языки, но не знает родного, это неприемлемо для Нового Узбекистана. Он должен знать иностранный язык, но обязан знать и родной»⁵⁸. Действительно, чтобы изучать иностранные языки, в первую очередь необходимо хорошо знать свой родной язык. Указы Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указ Президента № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года, № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года, а также постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» от 11 августа 2017 года и другие нормативно-правовые акты, связанных с этой сферой, определяют задачи, выполнение которых в определенной степени способствует реализации данной диссертационной работы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям научно-технологического развития Республики. Данное исследование проводилось в рамках приоритетного направления научно-технологического развития Республики 1. “Формирование и внедрение системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. В лингвистике проблемы, связанные с концептом «золото», долгое время привлекали внимание лингвистов всего

